

UDC 378

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O`RGATISHNING INNOVATSION USULLARI

P.A. Насырова¹, З.О. Эгамберганава²

Abstract

Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga ingliz tili o`rgatishning innovatsion usullari aks ettirilgan.

Kalit so`zlar: innovatsion usullar, kichik yoshdagi bolalar, ta`lim berish, dars metodlari.

2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta`minlash, bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

ilg`or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish sharoitlarini yaratish;

maktabgacha ta`lim sifatini oshirish, maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta`lim –tarbiya jarayoniga jahon a maliyotida keng qo`llaniladigan zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta`lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash bo`yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish;

zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta`lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o`quv reja va dasturlarini takomillashtirish;

maktabgacha ta`lim muassasalari hududini obodonlashtirish va ichimlik suvi bilan ta`minlash uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining mablag`lari;

maktabgacha ta`lim muassasalarini jihozlash uchun- O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari;

xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar va donor mamlakatlar mablag`lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mustaqillik yillarida respublikada milliy ta`lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo`nalishi darajasiga ko`tarildi. O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e`tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzluksiz ta`lim tizimi barpo etildi.

Maktabgacha ta`lim sohasi mazkur tizimning ilk bo`g`ini hisoblanadi va ta`lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo`lgan-barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarorning amalga oshirilishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo`nalishlaridan biri sifatida respublikamizning uzluksiz ta`lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi rivojlanish yo`lining uzviy va bosqichma-bosqichligini ta`minlaydi.

Qonunga muvofiq hozirgi kunda nafaqaqt maktab, kollej, litsey o`quvchilari va oliy o`quv yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta`lim muassasa tarbiyalanuvchilari

¹*Насырова Рано Азизовна* – преподаватель английского языка кафедры «Истории и грамматики английского языка», Самаркандский государственный институт иностранных языков, Узбекистан.

²*Эгамберганава Зилола бону Оллоназар қизи* – студентка факультета английского языка, Самаркандский государственный институт иностранных языков, Узбекистан.

va turli xil sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tillarini o`rgatish xususan rus, ingliz, fransuz, koreys, xitoy tillarini o`rgatish yo`lga qo`yilmoqda.

Hozirda maktabgacha va boshlang`ich ta`lim yo`nalishlari aynan poytaxtimiz Toshkent va Samarqand viloyatlari oliy ta`lim muassasalarida tashkil etildi. Mening fikrimcha, bu yo`nalish bo`yicha boshqa viloyatlarda ham tezroq yangiliklar kiritilishi kerak. Ya`ni biz maktabgacha ta`lim muassasalarida xorijiy tillarni yo`lga qo`yishni jadal rivojlantirishimiz kerak. Bekorga xalqimizda "Bola boshidan" degan maqol mavjud emas. Biz bolalarning yoshligidanoq chet tillarini o`rgatishga katta ahamiyat bersak, erta kelajagimiz bundanda go`zalroq bo`ladi. Hozirgi bolajonlarning qo`lidan bu ish keladi. Biz faqat ularga to`g`ri yo`nalishni ko`rsata bilishimiz shart deb o`ylayman.

Shunga muvofiq, iqtisodiy fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o`rganish, jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir. Hozirgi kunda zamon talablariga mos keladigan namunali o`quv markazlari misol bo`lishi mumkin. Bu namunali o`quv markazlarida yosh kadrlar turli xil sohada tahsil olishlari mumkin. Bolalarga nafaqat dars xonalarida, ya`ni maktabgacha ta`lim muassasalarida til o`rgatishimiz, balki ularni ko`proq tabiat qo`yniga sayrga olib chiqib, albatta ularning xavfsizligini ta`minlagan holda biz tabiat qo`ynida rangli, qiziqarli, quvnoq o`yinlarni chet tillarida olib borishimiz darkor. Bu bolajonlarning ma`naviy va ruhiy holatiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bolalar uchun kichik xonalarda dars o`tish albatta zerikarli bo`lishi mumkin, tabiat va atrof muhit bolalarning ruhiyatini ko`taradi.

Ular yanada tilni chuquroq o`rganishga intiladi va biz nafaqat tabiat qo`yniga olib chiqishimiz mumkin, balki ularni hayvonot bog`larini aylantirishimiz ham aynan maqsadga muvofiq bo`lar edi. Bu bolalarni so`z boyligini oshirishga yordam beradi. Chunki bola ham ko`radi, va shu orqali so`zlarni eslab qoladi, hamda so`z boyligini oshiradi. Mana shunday ajoyib ekskursiyalar bilan bolajonlarning so`z boyligini bolaligidanoq oshirib borishimiz ularning kelajagiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Balkim bolajonlarni tabiat qo`ynilariga yoki har xil ekskursiyalarga olib chiqishimizni man etishar chunki ularni sog`liqlari hamma narsadan muhim.

Bunday hollarda biz maktabgacha ta`lim muassasalari xonalarini kerakli ko`rgazma qurollari va uskunalari bilan bezatishimiz lozim. Atroflarini rang barang gullar, hayvonlar, yumshoq o`yinchoqlar, har xil multfilm qaxramonlari o`yinchoqlari bilan boyitishimiz kerak. Xona devorlarini quyosh rangida, yoki ochiq ko`k yoki yashil ranglarida boyashimiz lozim. Chunki ranglar doim bolajonlarimizning kayfiyatini ko`taradi.

Til o`rganish ham yosh davrlariga bog`liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o`zlashtiradilar. Bolalarda til o`rganishga bo`lgan tabiiy moyilik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtinig ko`pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e`tiborga olish kerakki, yosh bolalar ma`lumotlar ma`nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang`ich sinf o`quvchilariga ingliz tilini o`rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik kerak. Aks holda chet tillarini o`rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo`riqtirib qo`yish mumkin.

Mening fikrimcha, bolajonlarimizga mana shunday yo`nalishlarda dars o`tishimiz maqsadga muvofiq bo`lar edi:

-qo`shiqlar va she`rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo`lgan, ma`noga ega bo`lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o`rgatish;

-aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog`liq bo`lgan o`yinlar bilan o`rgatish;

-multfilmlar orqali. Bolalar til o`rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so`zlarni tushunishga intiladi;

-ko`rgazmali qurollar, turli xil rasmlar, ertaklar, kitoblar, va shunga o`xshash turli xil predmetlardan ham bo`lishi mumkin.

Bilamizki bolalar qiziquvchan bo`ladi. Ular bir xillikdan tez zerikadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o`tmaslik lozim. Aks holda bolalar o`qituvchining qanday dars o`tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorlik ko`rishadi. Usullarni yangilab dars o`tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o`rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg`ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o`tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi" qarori // www.lex.uz
2. O`.Xoshimov, I.Yoqubov Ingliz tili o`qitish metodikasi. - Toshkent: 2003. - 270 s.

© P.A. Насырова, З.О. Эгамберганава, 2018
